Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari.....	1630
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
Oripova Saodat Mirfotikh kizi	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
Halilov Sherzod Akhmatovich	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
Kodir Gulomov	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari.....	1664
Ataniyazova Maksuda Baltabayevna	
Beqarorlik sharoitida korxona ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	1674
Musinov Dilshod Sultanovich	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1680
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta'minlash mexanizmlari.....	1686
Sattorova Nasiba G'anjoni qizi	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta'siri.....	1690
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari	1694
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining o'rni va roli.....	1701
Xudoyorova Mehrangiz Murodovna	
Xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni: nazariy-metodologik asoslar.....	1705
Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich	
Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlar.....	1710
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Valyuta-moliya munosabatlari va globallashtirish jarayonlarining iqtisodiy mohiyati.....	1714
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Yuldasheva Umida	
Tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish va ularning jozibadorligini oshirish strategiyalari: iqtisodiy va raqamli yondashuvlar	1719
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1725
Kuliboev Azamat Shonazarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali sifatini oshirishda ta'limning ahamiyati.....	1731
M.Ostanova	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida hududlar soliq salohiyatini va ularni oshirish masalalari	1736
Baxtiyorov Umid Kaxramon o'g'li	
Перспективы и инновационные подходы в методологии управления денежными потоками	1741
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	1746
Abdusherozov Abdullo Baxtiyrovich	
Mintaqaviy turizmni rivojlanishi va xavfsizligini ta'minlashda turizm infratuzilmasining o'rni va ahamiyati (xorazm viloyati timsolida)	1753
Doschanov Tangirbergen Doschanovich, Ruzmetova Shoira Shuxrat qizi	
Turizm destinatsiyalarida turistik mahsulotni yaratish jarayonining tahlili.....	1759
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarning tarkibiy tahlili.....	1764
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Ergasheva Aziza Xasan qizi	
Davlat organlari ichki audit tuzilmalari tomonidan samaradorlik auditini tashkil etish masalalari.....	1773
Nasimov Fazliddin Sirojevich	
Совершенствование методологических основ внедрения цифровых финансовых активов.....	1777
Якубова Ш.Ш.	
O'zbekistonda turizm sohasi ko'rsatkichlari tahlili	1783
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
"Yashil iqtisodiyot" ga o'tishda ESG-lizingdan foydalanish xususiyatlari	1788
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirishning nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlari	1793
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Agrar sohani barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	1798
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida aloqa xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari	1801
Xazratov Abror Panjiyevich	
Yengil sanoat eksportining mahsulot va geografik diversifikatsiyasi dinamikasi: muammo va yechimlar	1805
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	



Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashning strategik yondashuvlari	1809
Toshboyev Bekzod Baxtiyorovich	
O'zbekistonda vino turizmini rivojlantirish yo'llari.....	1816
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
Yashil startaplar samaradorligini aniqlashda raqamli vositalar roli	1820
Eshbayev Oybek Alik o'g'li	
Fuqarolik jamiyati institutlariga moliyaviy mablag' jalb etish yo'llari.....	1830
Po'latov Sardor Akmal o'g'li	
The importance of accounting policy in preparing reports based on international standards.....	1835
Sayfulloev Jamshid Qobil o'g'li	
Qurilish sohasida materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatni raqamlashtirish yo'nalishlari	1839
Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li	
Aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish	1844
Ismailov Allayor Rashidovich	
Rivojlangan xorijiy davlatlarda davlat moliyaviy nazoratining ilg'or tajribalari va undan O'zbekiston foydalanish	1851
Saparov Elmurod Donabayevich	
O'zbekiston korxonalarida moliyaviy risklarni baholash amaliyotining dolzarbligi va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari	1854
Payziyev Dilshod G'ulomovich	
Tijorat banklari uchun raqamli ruxsat berish standartlari.....	1859
Qurbonov Tolibjon Sobirjonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI STRESS-TESTLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1864
Muqumov Orifjon Abduroziqovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	1870
Gafurova Dilshoda Ramazanovna, Aminov Anvarxon Kazimovich	
INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY-INSTITUTIONAL VA AMALIY ASOSLARI.....	1874
U.N.Muxammadiyev	
JAHON AVTOMOBIL BOZORIDA BREND STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	1882
Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayevich	



JAHON AVTOMOBIL BOZORIDA BREND STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

mustaqil tadqiqotchi,

E-mail: lqadrxoja1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon avtomobil bozorida brend strategiyasini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari hamda ularning avtomobil sanoati korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi global avtomobil bozorida brend strategiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning zamonaviy marketing va boshqaruv yondashuvlari asosida samaradorligini baholashdan iborat. Maqolada xalqaro avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning brend strategiyalarini shakllantirishdagi asosiy yo'nalishlari, xususan, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, elektromobillar segmentining kengayishi, iste'molchi tajribasiga yo'naltirilgan marketing yondashuvlari hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, jahon avtomobil brendlarining strategik pozitsiyalanishi, brend qiymatini oshirish mexanizmlari va bozordagi raqobat ustunligini ta'minlash omillari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: avtomobil sanoati, brend strategiyasi, brend boshqaruvi, raqobatbardoshlik, strategik marketing, raqamli transformatsiya, korporativ imidj.

Abstract: This article analyzes the modern trends in the development of brand strategies in the global automotive market and their impact on the competitiveness of automotive industry enterprises. The main objective of the study is to identify the factors influencing the formation and development of brand strategies in the global automotive market and to evaluate their effectiveness based on modern marketing and management approaches. The paper examines the key directions in shaping brand strategies of international automobile manufacturers, including digital transformation, sustainable development, expansion of the electric vehicle segment, customer experience-oriented marketing approaches, and the implementation of innovative technologies. In addition, the strategic positioning of global automotive brands, mechanisms for increasing brand value, and factors ensuring competitive advantage in the market are analyzed from a scientific perspective.

Key words: automotive industry, brand strategy, brand management, competitiveness, strategic marketing, digital transformation, corporate image.

Аннотация: В данной статье научно анализируются современные тенденции развития бренд-стратегий на мировом автомобильном рынке, а также их влияние на конкурентоспособность предприятий автомобильной промышленности. Основной целью исследования является выявление факторов, влияющих на формирование и развитие бренд-стратегий на глобальном автомобильном рынке, а также оценка их эффективности на основе современных подходов маркетинга и управления. В статье рассматриваются ключевые направления формирования бренд-стратегий международных автомобильных компаний, в частности цифровая трансформация, устойчивое развитие, расширение сегмента электромобилей, маркетинговые подходы, ориентированные на потребительский опыт, а также внедрение инновационных технологий. Кроме того, с научной точки зрения освещаются вопросы стратегического позиционирования мировых автомобильных брендов, механизмы повышения ценности бренда и факторы обеспечения конкурентных преимуществ на рынке.

Ключевые слова: автомобильная промышленность, бренд-стратегия, управление брендом, конкурентоспособность, стратегический маркетинг, цифровая трансформация, корпоративный имидж.



KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida avtomobil sanoati eng tez rivojlanayotgan hamda yuqori raqobat darajasi bilan ajralib turadigan tarmoqlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Global avtomobil bozori nafaqat sanoat ishlab chiqarishining muhim segmenti, balki innovatsiyalar, texnologik rivojlanish va xalqaro savdo jarayonlarini shakllantiruvchi strategik soha sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o'rtasidagi raqobatning kuchayib borishi natijasida korxonalar o'z brend strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga hamda zamonaviy marketing yondashuvlarini joriy etishga intilmoqda. Ayniqsa, global bozorda iste'molchilarning talab va ehtiyojlaridagi o'zgarishlar, ekologik standartlarning kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda elektromobillar bozorining kengayishi avtomobil brendlarini rivojlantirish strategiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi besh yil davomida jahon avtomobil bozori pandemiya, global logistika zanjirlaridagi uzilishlar hamda yarimo'tkazgichlar yetishmovchiligi kabi omillar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Shu bilan birga, avtomobil sanoati asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatidagi ahamiyatini saqlab qolmoqda. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yicha elektromobillar savdosi 17 million donadan oshib, global avtomobil savdosining 20 foizdan ortig'ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan bir necha barobar yuqori natija hisoblanadi. 2025-yilga kelib ayrim mamlakatlarda elektromobillarning yangi avtomobil savdosidagi ulushi yanada oshib, rivojlangan davlatlarda 25 foizga yaqinlashdi [1]. Ushbu dinamik o'sish avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar uchun brend strategiyalarini ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar hamda raqamli xizmatlar bilan integratsiyalash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda avtomobil brendlarining global raqobatbardoshligini ta'minlashda brend kapitali, innovatsion marketing strategiyalari, raqamli kommunikatsiya kanallari hamda mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish tizimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avtomobil ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar, jumladan, Yevropa, AQSh va Osiyo mamlakatlaridagi yetakchi brendlar o'z strategiyalarida elektromobillar, sun'iy intellektga asoslangan transport tizimlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalari hamda "aqlli mobilite" konsepsiyalarini faol joriy etmoqda [2]. Shu bilan birga, global avtomobil bozorida yangi raqobatchilarning paydo bo'lishi brend strategiyalarining takomillashuviga xizmat qilmoqda. Masalan, 2025-yilda elektr transport vositalari segmentida ayrim Xitoy kompaniyalari global bozorda yetakchi o'rinlarni egallab, millionlab elektromobillarni realizatsiya qilishga erishdi. Bu holat jahon avtomobil bozorida brend pozitsiyalash strategiyalarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, avtomobil brendlarining global rivojlanishida marketing kommunikatsiyalari va raqamli transformatsiya muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Avtomobil kompaniyalari tomonidan onlayn savdo platformalari, raqamli marketing texnologiyalari, mijozlar tajribasiga asoslangan servis xizmatlari hamda innovatsion mobil ilovalar keng joriy etilmoqda. Natijada avtomobil brendlarining iste'molchilar bilan o'zaro aloqasi an'anaviy savdo modelidan raqamli ekotizimga asoslangan integratsiyalashgan xizmatlar tizimiga o'tmoqda. Shu bilan birga, global avtomobil ishlab chiqaruvchilari brend qiymatini oshirish maqsadida elektromobillar ishlab chiqarishni kengaytirish, karbon neytrallik siyosatini joriy etish hamda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan strategiyalarni izchil amalga oshirmoqda (1-jadval).

1-jadval. Avtomobil sanoatida brend strategiyasini shakllantirish bosqichlari¹

№	Bosqich	Tavsifi	Strategik ahamiyati
1	Bozor tahlili	Global avtomobil bozoridagi tendensiyalarni o'rganish	Raqobat muhitini aniqlash
2	Brend identifikatsiyasi	Brendning asosiy qadriyatlar va pozitsiyasini belgilash	Brend imijini shakllantirish
3	Marketing strategiyasini ishlab chiqish	Reklama, kommunikatsiya va savdo strategiyalarini belgilash	Brend tanilishini oshirish
4	Brendni rivojlantirish	Innovatsion texnologiyalar va yangi mahsulotlarni joriy etish	Uzoq muddatli raqobat ustunligini yaratish

Ushbu jadval avtomobil sanoatida brend strategiyasini shakllantirishning to'rtta asosiy bosqichini ifodalaydi: birinchi bosqich — bozor tahlili bo'lib, unda global avtomobil bozoridagi tendensiyalar o'rganiladi va raqobat muhiti aniqlanadi; ikkinchi bosqich — brend identifikatsiyasi, bunda brendning asosiy qadriyatlar va bozordagi pozitsiyasi belgilanib, uning imiji shakllantiriladi; uchinchi bosqich — marketing strategiyasini ishlab chiqish, ya'ni reklama, kommunikatsiya va savdo yo'nalishlari orqali brend tanilishini oshirishga qaratiladi; to'rtinchi bosqich — brendni rivojlantirish, bunda innovatsion texnologiyalar va yangi mahsulotlar joriy etilib,

1 Muallif ishlanmasi.



uzoq muddatli raqobat ustunligi ta'minlanadi. Umuman olganda, mazkur jadval brendni yaratishdan tortib, uni bozorda mustahkamlashgacha bo'lgan izchil strategik jarayonni aks ettiradi.

Bundan tashqari, avtomobil sanoatida brend strategiyalarining rivojlanishi global iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Raqobatning kuchayib borishi sharoitida kompaniyalar yangi bozorlarni egallash, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hamda brend imijini mustahkamlash orqali bozor ulushini kengaytirishga intilmoqda. Masalan, ayrim xalqaro avtomobil kompaniyalari kelgusi o'n yillikda global savdo hajmini sezilarli darajada oshirish va yangi model qatorlarini ishlab chiqish orqali rivojlanayotgan bozorlar ulushini kengaytirishni strategik maqsad sifatida belgilamoqda [3]. Mazkur yondashuvlar avtomobil sanoatida brend boshqaruvining zamonaviy mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston avtomobil bozori ham so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan segmentlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda 427 mingdan ortiq avtomobil sotilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 6 foizdan ortiq o'sishni tashkil etdi. Shu bilan birga, yangi yengil avtomobillar savdosi 2025-yilda qariyb 370 ming donaga yetib, bozorda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatildi. Mahalliy avtomobil sanoatining rivojlanishi, xorijiy brendlarning kirib kelishi hamda elektromobil segmentining shakllanishi O'zbekiston avtomobil bozorida brend strategiyalarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois, jahon avtomobil bozorida brend strategiyasini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini o'rganish hamda ularni milliy avtomobil sanoati rivojiga moslashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon avtomobil bozorida brend strategiyasini rivojlantirish masalasi marketing, strategik menejment hamda iste'molchi xulq-atvori nazariyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu yo'nalishda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, avtomobil sanoatida brend strategiyasining samaradorligi asosan brend kapitali (brand equity), brend imiji, brendga sodiqlik, innovatsion marketing hamda iste'molchi tajribasi kabi omillar bilan belgilanadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda avtomobil brendlari nafaqat mahsulot sifatini ifodalovchi belgi sifatida, balki iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantiruvchi strategik aktiv sifatida ham talqin etilmoqda.

Xorijiy olimlar orasida brend strategiyasi nazariyasini rivojlantirishda D. Aaker muhim ilmiy hissa qo'shgan. Uning tadqiqotlarida brend kapitali tushunchasi marketing strategiyasining markaziy elementi sifatida talqin qilinadi². Aaker konsepsiyasiga ko'ra, brend kapitali asosan to'rtta asosiy komponent — brend xabardorligi, brend assotsiatsiyalari, qabul qilingan sifat va brendga sodiqlik orqali shakllanadi. Mazkur omillar iste'molchilarning brendga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda kompaniyaga bozorda raqobat ustunligini ta'minlaydi [4]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kuchli brend kapitaliga ega kompaniyalar bozorda yuqori narx siyosatini yuritish imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa avtomobil sanoatida strategik ustunlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Brend strategiyasining nazariy asoslarini rivojlantirishda K. Keller ham muhim o'rin tutadi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, brend strategiyasi iste'molchilar ongida shakllanadigan brend bilimlari (brand knowledge) orqali namoyon bo'ladi³. Keller brend kapitalini shakllantirish jarayonida brend identifikatsiyasi, brend ma'nosi, iste'molchi reaksiyasi va brend bilan aloqadorlik bosqichlaridan iborat "Customer-Based Brand Equity" modelini ishlab chiqqan [5]. Ushbu model avtomobil sanoatida iste'molchilar tajribasini shakllantirish, brend imijini mustahkamlash hamda brendga sodiqlikni oshirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Brend strategiyasi va iste'molchi xulq-atvori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari R. Batra tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Olimning ilmiy ishlarida reklama, marketing kommunikatsiyalari hamda brend shaxsiyati iste'molchilarning brendga nisbatan munosabatini shakllantirishda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi⁴. Batra reklama vositalari orqali brend ma'nosini shakllantirish va uni iste'molchilar ongida mustahkamlash jarayonini brend strategiyasining muhim komponenti sifatida ko'rsatadi [6]. Shu sababli avtomobil kompaniyalari reklama, homiylik hamda kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish orqali brend imijini rivojlantirishga intilmoqda.

Zamonaviy marketing nazariyasida brend boshqaruvi jarayonining evolyutsiyasini tahlil qilgan olimlardan biri H. Keh hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida brend strategiyasining samaradorligi iste'molchilar bilan o'zaro aloqalarni boshqarish, xizmat ko'rsatish sifati hamda barqaror marketing tamoyillarini joriy etish bilan bevosita bog'liqligi asoslab berilgan⁵. Kehning ilmiy qarashlariga ko'ra, brend qiymati nafaqat mahsulot xususiyatlari, balki kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyati, xizmat ko'rsatish darajasi va innovatsion marketing faoliyati orqali ham shakllanadi [7].

2 Aaker, D. Managing Brand Equity: Capitalizing on the Value of a Brand Name. – New York: The Free Press, 1991. – 336 p.

3 Aaker, D. Managing Brand Equity: Capitalizing on the Value of a Brand Name. – New York: The Free Press, 1991. – 336 p.

4 Batra, R., Myers, J., Aaker, D. Advertising Management. 5th ed. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. – 784 p.

5 Keh, H., Nguyen, T. The Effects of Entrepreneurial Orientation and Marketing Information on the Performance of SMEs. Journal of Business Venturing, 2007. – Vol. 22, No. 4. – pp. 592–611.



Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar avtomobil sanoatida brend strategiyasining rivojlanishida iste'molchilar tajribasi, brendga sodiqlik hamda brend imijining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ayrim ilmiy izlanishlar avtomobil brendini tanlash jarayonida iste'molchilar avvalo brend imiji, brendga nisbatan ishonch va mahsulot sifatini asosiy mezon sifatida baholashini aniqlagan. Mazkur yondashuv avtomobil sanoatida marketing strategiyasini shakllantirishda brend boshqaruvi muhim strategik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Mahalliy olimlar ham brend strategiyasi va marketing boshqaruvi masalalarini o'rganishda muhim ilmiy hissa qo'shgan. Jumladan, o'zbek iqtisodchi olimlaridan A. Vahobov o'z tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotda marketing strategiyalarining ahamiyatini tahlil qilib, brendni korxona raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim strategik resurs sifatida baholaydi⁶. Uning fikricha, brend strategiyasining samarali shakllanishi korxona imijini mustahkamlash, iste'molchilar ishonchini oshirish hamda bozorda barqaror raqobat ustunligini ta'minlash imkonini beradi [8].

Mahalliy marketing tadqiqotlarida Sh. Shodmonov ham brend boshqaruvi va marketing strategiyasi masalalarini keng yoritgan⁷. Olimning fikricha, zamonaviy sharoitda korxonalarning raqobatbardoshligi asosan innovatsion marketing yondashuvlari, brend strategiyasining samarali tashkil etilishi hamda iste'molchi ehtiyojlarini chuqur o'rganish orqali ta'minlanadi [9]. Shodmonov brend strategiyasini korxona marketing tizimining ajralmas qismi sifatida talqin etadi.

O'zbekiston iqtisodiy maktabining yana bir vakili B. Salimov o'z ilmiy ishlarida korxonalarda marketing boshqaruvi tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganib, brend strategiyasining korxona bozor ulushini oshirishdagi ahamiyatini asoslab bergan⁸. Uning qarashlariga ko'ra, brend strategiyasini samarali boshqarish korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi [10].

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilardan Q. Abdullayev o'z ilmiy izlanishlarida marketing kommunikatsiyalari hamda brend imijining korxona raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini tahlil qilgan⁹. Olimning fikricha, brend strategiyasi iste'molchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish, mahsulot imijini shakllantirish hamda bozorda mustahkam pozitsiyani egallash imkonini beradi [11].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jahon avtomobil bozorida brend strategiyasini rivojlantirish masalasi marketing nazariyasi va strategik menejmentning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari avtomobil sanoatida brend kapitali, brend imiji, innovatsion marketing texnologiyalari hamda iste'molchi tajribasining strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, jahon avtomobil bozorida raqamli transformatsiya, elektromobillar segmentining rivojlanishi hamda barqaror rivojlanish tamoyillari brend strategiyasining yangi konseptual yondashuvlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda jahon avtomobil bozorida brend strategiyasini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash hamda ularning avtomobil sanoati korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash maqsadida kompleks ilmiy metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya, ilmiy umumshtirish hamda kontent-tahlil usullari qo'llanildi.

Xususan, global avtomobil bozorida faoliyat yuritayotgan yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchilarning brend strategiyalari, marketing yondashuvlari hamda innovatsion rivojlanish yo'nalishlari qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Shu bilan birga, avtomobil sanoatida brend strategiyasining samaradorligini baholashda marketing nazariyasi, strategik menejment konsepsiyalari hamda brend kapitali modeli asosidagi ilmiy yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon avtomobil bozori so'nggi yillarda chuqur strukturaviy o'zgarishlar bosqichiga kirib, global miqyosda brend strategiyalarining yangi shakllarini shakllantirishni talab etmoqda. So'nggi besh yil davomida avtomobil sanoati pandemiya, global logistika zanjirlaridagi uzilishlar, yarimo'tkazgichlar tanqisligi, ekologik talablarning kuchayishi hamda elektromobillar segmentining jadal rivojlanishi kabi omillar ta'sirida sezilarli transformatsiyani boshdan kechirdi. Ushbu jarayonlar avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar uchun brend strategiyalarini qayta ko'rib chiqish hamda ularni innovatsion marketing, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

6 Vahobov, A., Xajibakiyev, Sh., Tadjibayeva, D. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014. – 464 b.

7 Shodmonov, Sh., G'ofurov, U. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 b.

8 Salimov, B. Marketing boshqaruvi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 312 b.

9 Abdullayev, Q. Marketing. – Toshkent: Fan, 2016. – 356 b.



Avtomobil sanoatidagi asosiy global tendensiyalardan biri — elektromobillar bozorining tez sur'atlarda rivojlanishidir. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yicha elektromobillar savdosi 17 million donadan oshib, global avtomobil savdosining 20 foizidan ortig'ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan bir necha barobar yuqori bo'lib, avtomobil sanoatida elektr transport vositalari segmentining strategik ahamiyati sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Prognozlariga ko'ra, 2025-yilga kelib global elektromobil savdosi 20 million donadan oshib, yangi avtomobil savdosining qariyb chorak qismini tashkil etishi kutilmoqda [12].

Mazkur jarayon avtomobil ishlab chiqaruvchilarining brend strategiyalarida ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar hamda energiya samaradorligi masalalariga ustuvor e'tibor qaratilishiga olib kelmoqda. Misol uchun, 2025-yilda global elektromobil bozorida Xitoyning BYD kompaniyasi yetakchi o'rinlardan birini egallab, qariyb 4 million dona plug-in elektromobil realizatsiya qilgan hamda global bozorning taxminan 19 foiz ulushini egallagan. Bu holat avtomobil brendlarining raqobat strategiyalarida elektromobillar segmentini rivojlantirish hal qiluvchi omillardan biriga aylanganini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. Jahon avtomobil bozorida brend strategiyasini rivojlantirish modeli¹⁰

№	Mustaqil omillar (Independent variables)	Mazmuni	Oraliq omillar (Mediating variables)	Natijaviy omillar (Dependent variables)
1	Innovatsion texnologiyalar	Elektromobillar, avtonom boshqaruv tizimlari, sun'iy intellekt texnologiyalari	Brend imiji	Jahon avtomobil bozorida raqobatbardoshlik
2	Raqamli transformatsiya	Onlayn savdo platformalari, mobil xizmatlar, raqamli marketing	Brend xabardorligi	Bozor ulushining oshishi
3	Marketing kommunikatsiyalari	Reklama strategiyalari, PR faoliyati, ijtimoiy tarmoqlar marketingi	Brend assotsiatsiyalari	Iste'molchilar sodiqligi
4	Mahsulot diversifikatsiyasi	Elektr, gibrid va an'anaviy avtomobillar ishlab chiqarish	Qabul qilingan sifat	Brend kapitalining oshishi
5	Global strategik hamkorlik	Xalqaro hamkorlik, qo'shma loyihalar, global marketing	Brendga ishonch	Kompaniya barqaror rivojlanishi

Mazkur konseptual modelga ko'ra, jahon avtomobil bozorida brend strategiyasining rivojlanishi bir qator strategik omillar ta'sirida shakllanadi. Innovatsion texnologiyalar, raqamli transformatsiya, marketing kommunikatsiyalari hamda mahsulot diversifikatsiyasi avtomobil sanoati korxonalarining brend strategiyasini rivojlantiruvchi asosiy mustaqil omillar sifatida qaraladi. Ushbu omillar brend imiji, brend xabardorligi, brend assotsiatsiyalari va iste'molchilar ishonchi kabi oraliq omillar orqali avtomobil kompaniyalarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, bozor ulushi hamda brend kapitaliga ta'sir ko'rsatadi. Natijada avtomobil sanoati korxonalarida samarali brend strategiyasini shakllantirish kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishi hamda jahon bozorida barqaror pozitsiyani egallashiga xizmat qiladi.

Jahon avtomobil bozorida yana bir muhim tendensiya — raqamli transformatsiya va iste'molchi tajribasiga asoslangan marketing strategiyalarining rivojlanishidir. Avtomobil kompaniyalari an'anaviy savdo tizimidan bosqichma-bosqich raqamli platformalar asosidagi savdo modeliga o'tmoqda. Bugungi kunda ko'plab global brendlar avtomobillarni onlayn buyurtma qilish, masofadan turib servis xizmatlarini boshqarish hamda mobil ilovalar orqali avtomobil funksiyalarini nazorat qilish kabi xizmatlarni joriy etmoqda [13]. Mazkur yondashuvlar brendning iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Hindiston va Yaponiya jahon avtomobil bozorining yirik segmentlarini tashkil etadi. Xususan, Xitoy elektromobillar ishlab chiqarish va savdosi bo'yicha yetakchi bo'lib, ayrim yillarda elektromobillar umumiy avtomobil savdosining yarmiga yaqin ulushini tashkil etmoqda. Shu bilan birga, Norvegiyada 2025-yilga kelib elektromobillar yangi avtomobil savdosining 97 foizini tashkil etgani qayd etilgan. Mazkur holat davlat siyosati, subsidiyalar, ekologik standartlar hamda infratuzilma rivoji avtomobil brend strategiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etadi.

Avtomobil brend strategiyalarining rivojlanishida yana bir muhim yo'nalish — mahsulot portfelini diversifikatsiya qilishdir. Zamonaviy avtomobil ishlab chiqaruvchilari elektr, gibrid va an'anaviy dvigatelli avtomobillarni bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish orqali turli bozor segmentlarida o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga intilmoqda. Masalan, ayrim global kompaniyalar 2030-yilgacha o'z model qatorining qariyb 40–50 foizini elektromobillar tashkil etishini strategik maqsad sifatida belgilagan [14]. Bu esa brend

¹⁰ Muallif ishlanmasi.



strategiyasini texnologik innovatsiyalar, ekologik talablar hamda iste'molchilar ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, global avtomobil brendlari raqobatbardoshligini ta'minlashda quyidagi asosiy strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda:

1. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish — elektromobillar, avtonom boshqaruv tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash.
2. Raqamli marketing va mijoz tajribasi — onlayn savdo platformalari, raqamli servis xizmatlari hamda mobil ilovalar orqali brend bilan doimiy aloqani ta'minlash.
3. Barqaror rivojlanish strategiyalari — ekologik standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish hamda karbon neytrallik siyosatini joriy etish.
4. Global brend pozitsiyalash — yangi bozorlarni egallash hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda brend imijini mustahkamlash.

Shu bilan birga, avtomobil bozoridagi raqobatning kuchayib borishi kompaniyalarni marketing kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirishga undamoqda. Zamonaviy avtomobil brendlari reklama, ijtimoiy tarmoqlar, homiylik loyihalari hamda innovatsion PR strategiyalari orqali brend qiymatini oshirishga intilmoqda. Natijada brend imiji avtomobilni tanlash jarayonida iste'molchilar uchun eng muhim mezonlardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston avtomobil bozori ham so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan segmentlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda jami 402 mingdan ortiq avtomobil sotilgan bo'lib, avtomobil bozori milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra esa yangi yengil avtomobillar savdosi qariyb 370 ming donani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 5,2 foiz o'sishni ko'rsatdi. 2025-yilning dastlabki 9-oyida mamlakatda 296 mingdan ortiq avtomobil realizatsiya qilingan bo'lib, bozorning asosiy ulushi mahalliy ishlab chiqarilgan avtomobillarga to'g'ri kelmoqda [15].

Shu bilan birga, so'nggi yillarda import avtomobillar, ayniqsa elektromobillar hamda Xitoy brendlarining ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Mazkur jarayonlar O'zbekiston avtomobil bozorida brend strategiyalarini rivojlantirish, marketing kommunikatsiyalarini kuchaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Mahalliy avtomobil ishlab chiqaruvchilar uchun global avtomobil brendlari tajribasini o'rganish, elektromobillar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda raqamli marketing texnologiyalarini keng qo'llash kelgusida milliy avtomobil sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida jahon avtomobil bozorida brend strategiyasini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi hamda global avtomobil sanoatida kuzatilayotgan asosiy transformatsion jarayonlar aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, avtomobil sanoatida brend strategiyasining samaradorligi nafaqat mahsulot sifati yoki narx siyosati, balki innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli marketing vositalaridan foydalanish, iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini qo'llash bilan ham chambarchas bog'liqdir. So'nggi yillarda global avtomobil bozori elektromobillar segmentining jadal rivojlanishi, raqamli transformatsiya jarayonlarining kuchayishi hamda iste'molchilar xulq-atvoridagi o'zgarishlar bilan tavsiflanmoqda. Mazkur omillar avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni o'z brend strategiyalarini modernizatsiya qilishga hamda yangi marketing yondashuvlarini joriy etishga undamoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yil davomida jahon avtomobil bozorida brend strategiyasining rivojlanishiga bir qator muhim omillar ta'sir ko'rsatgan. Birinchidan, elektromobillar va ekologik toza transport vositalarining keng tarqalishi avtomobil ishlab chiqaruvchilarning innovatsion brend pozitsiyalash strategiyalarini shakllantirishiga xizmat qilmoqda. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida avtomobil kompaniyalari marketing kommunikatsiyalarini raqamli platformalar asosida tashkil etish orqali iste'molchilar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'ymoqda. Uchinchidan, global avtomobil bozorida raqobatning ortib borishi kompaniyalarni brend qiymatini oshirish, yangi bozor segmentlarini egallash hamda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirmoqda. Natijada brend strategiyasi avtomobil kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim strategik instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bundan tashqari, avtomobil brendlarini rivojlantirishda barqaror rivojlanish (sustainability) tamoyillariga asoslangan strategiyalarni joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ko'plab global avtomobil kompaniyalari karbon neytrallikka erishish, ekologik standartlarga mos transport vositalarini ishlab chiqarish hamda energiya samaradorligini oshirish orqali o'z brend imijini mustahkamlashga intilmoqda. Shu bois ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish avtomobil brendlarining uzoq muddatli strategik ustunligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.



Shuningdek, zamonaviy avtomobil sanoatida brend strategiyasining muvaffaqiyati ko'p jihatdan iste'molchilar tajribasini samarali boshqarish bilan bog'liqdir. Kompaniyalar avtomobilni sotib olish jarayonidan boshlab, servis xizmatlarigacha bo'lgan barcha bosqichlarda yuqori sifatli xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish orqali iste'molchilarning brendga bo'lgan sodiqligini oshirish imkoniyatiga ega. Shu nuqtai nazardan, avtomobil ishlab chiqaruvchilar mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini rivojlantirish, servis xizmatlari sifatini oshirish hamda brend bilan bog'liq ijobiy iste'molchi tajribasini shakllantirishga ustuvor e'tibor qaratishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, avtomobil kompaniyalarida brend strategiyasini shakllantirish jarayonida innovatsion marketing yondashuvlarini joriy etish zarur. Bunda raqamli marketing texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda elektron savdo platformalaridan foydalanish brendning global miqyosdagi tanilishini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, avtomobil brendlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida elektromobillar va ekologik toza transport vositalarini ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda energiya samaradorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchidan, avtomobil kompaniyalari iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish uchun mijozlarga yo'naltirilgan servis xizmatlari tizimini rivojlantirishi, avtomobil sotishdan keyingi xizmatlar sifatini oshirishi hamda mijozlar tajribasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishi lozim.

To'rtinchidan, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston avtomobil sanoatida ham brend strategiyasini rivojlantirish maqsadida global avtomobil ishlab chiqaruvchilar tajribasini o'rganish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda milliy avtomobil brendlarining xalqaro bozordagi imijini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, jahon avtomobil bozorida brend strategiyasini rivojlantirish jarayoni global iqtisodiy tendensiyalar, texnologik innovatsiyalar hamda iste'molchilar ehtiyojlaridagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Kelgusida avtomobil sanoatida brend strategiyasini rivojlantirish masalalarini chuqur ilmiy tahlil qilish, zamonaviy marketing va boshqaruv yondashuvlarini joriy etish hamda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash avtomobil kompaniyalarining global bozordagi raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari avtomobil sanoatida brend boshqaruvi tizimini takomillashtirish, marketing strategiyalarini samarali tashkil etish hamda global avtomobil bozorida barqaror raqobat ustunligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kapferer, J. The New Strategic Brand Management: Advanced Insights and Strategic Thinking. – London: Kogan Page, 2012. – 512 p.
2. World Bank. Global Economic Prospects – 2024. – Washington, DC: World Bank Publications, 2024. – 256 p.
3. Organisation Internationale des Constructeurs d'Automobiles (OICA). World Motor Vehicle Production Statistics – 2024. – Paris, 2024. – 85 p.
4. Aaker, D. Managing Brand Equity: Capitalizing on the Value of a Brand Name. – New York: The Free Press, 2019. – 336 p.
5. Keller, K. Strategic Brand Management: Building, Measuring and Managing Brand Equity. 4th ed. – Pearson Education Limited, 2013. – 608 p.
6. Batra, R., Myers, J., Aaker, D. Advertising Management. 5th ed. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. – 784 p.
7. Keh, H., Nguyen, T. The Effects of Entrepreneurial Orientation and Marketing Information on the Performance of SMEs. Journal of Business Venturing, 2007. – Vol. 22, No. 4. – pp. 592–611.
8. Vahobov, A., Xajibakiyev, Sh., Tadjibayeva, D. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014. – 464 b.
9. Shodmonov, Sh., G'ofurov, U. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 b.
10. Salimov, B. Marketing boshqaruvi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 312 b.
11. Abdullayev, Q. Marketing. – Toshkent: Fan, 2016. – 356 b.
12. International Energy Agency. Global EV Outlook – 2024: Trends in Electric Mobility. – Paris: IEA Publications, 2024. – 320 p.
13. OECD. Global Automotive Market Outlook – 2025. – Paris: OECD Publishing, 2025. – 210 p.
14. UNIDO. Industrial Development Report – 2024: Turning Challenges into Sustainable Industrial Development. – Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2024. – 280 p.
15. UzAuto Motors. Financial Statements (1H–2025). – Available at: <https://uzautomotors.com/documents/financial-statements-uam-1h-2025-with-signature-and-stamp.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>